

CENTRAL ASIA - TURKEY - AZERBAIJAN: ON THE PATH OF STRATEGIC DEVELOPMENT

Bafoyeva Dilovar Narzullayevna

University of World Economy and Diplomacy,

Faculty of International Relations

2nd year student.

+998914069652

+998774809652

bafoyevaadilovarr@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20404851>

MARKAZIY OSIYO - TURKIYA - OZARBAYJON: STRATEGIK TARQQIYOT YO'LIDA

Bafoyeva Dilovar Narzullayevna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro munosabatlar fakulteti

2-bosqich talabasi.

+998914069652

+998774809652

bafoyevaadilovarr@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjon o'rtasidagi hamkorlikning strategik o'lchovlari zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar fonida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy hamkirlilik jarayonlari geosiyosiy, iqtisodiy va gumanitar nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Turkiy davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayoni, ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida yangi bosqichga ko'tarilgani asoslab beriladi. Maqolada transport-logistika loyihalari, xususan, Transkaspiy yo'lagi va Zangazur koridori kabi tashaboslarning mintaqaviy taraqqiyotga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyadagi faol roli va tashabbuslari ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turkiy integratsiya nafaqat tarixiy yaqinlik, balki zamonaviy geoiqtisodiy manfaatlar uyg'unligi asosida shakllanayotgan strategik taraqqiyot modelidir. Maqola yakunida turkiy davlatlar integratsiyasining geoiqtisodiy barqarorlik modeli sifatidagi istiqbollari baholanadi.

Kalit soʻzlar: Turkiy integratsiya, strategik hamkorlik, geosiyosat, geoiqtisodiyot, mintaqaviy xavfsizlik, transport-logistika, Transkaspiy yoʻlagi, Zangazur koridori, iqtisodiy integratsiya, yashil energetika, gumanitar diplomatiya, Oʻzbekiston tashqi siyosati.

This article analyzes the evolving strategic cooperation between Central Asia, Turkey, and Azerbaijan from geopolitical, economic, and humanitarian perspectives. Special attention is given to the institutional development within the framework of the Organization of Turkic States and its growing role in regional integration. The study examines major transport and logistics initiatives, including the Trans-Caspian corridor and the Zangezur corridor, and their contribution to regional connectivity and economic growth. Furthermore, Uzbekistan's proactive diplomatic engagement and leadership in strengthening Turkic cooperation are highlighted. The findings suggest that Turkic integration represents not only historical and cultural unity but also a strategic model based on shared geopolitical and geo-economic interests.

Keywords: Turkic integration, strategic cooperation, geopolitics, geo-economics, regional security, transport corridors, Trans-Caspian route, Zangezur

corridor, economic partnership, green energy, humanitarian cooperation, Uzbekistan's foreign policy.

В данной статье рассматриваются современные процессы стратегического сотрудничества между странами Центральной Азии, Турцией и Азербайджаном в геополитическом, экономическом и гуманитарном измерениях. Особое внимание уделяется роли Организация тюркских государств в укреплении региональной интеграции. Анализируются транспортно-логистические проекты, включая Транскаспийский международный маршрут и Зангезурский коридор, как ключевые факторы экономического развития и межрегиональной взаимосвязанности. Также раскрывается активная позиция Узбекистана в формировании новой архитектуры сотрудничества тюркских государств. Делается вывод о том, что тюркская интеграция представляет собой стратегическую модель развития, основанную на общих интересах, историческом наследии

и современных геоэкономических приоритетах. Ключевые слова:

тюркская интеграция, стратегическое сотрудничество, геополитика, геоэкономика, региональная безопасность, транспортные коридоры, Транскаспийский маршрут, Зангезурский коридор, экономическая интеграция, зелёная энергетика, гуманитарное сотрудничество, внешняя политика Узбекистана.

KIRISH:

Bugungi kunda shiddat bilan oʻzgarib borayotgan dunyo siyosiy manzarasida yangi geosiyosiy markazlar va iqtisodiy qutblar shakillanmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjonni birlashtiruvchi “Turkiy geosiyosiy makon” kontsepsiyasi jahon

diplomatiyasining diqqat markaziga chiqdi. Turkiy davlatlar o'rtasidagi yaqinlashuv va mintaqaviy birdamlik jarayoni nafaqat mintaqada, balki jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Bu jarayon shunchaki etnik yoki madaniy yaqinlik emas, balki energetika xavfsizligi, transport diversifikatsiyasi va kollektiv xavfsizlik ehtiyojlaridan kelib chiqqan strategik zaruratdir. Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjonning tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari bugun strategik taraqqiyot yo'lida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon shunchaki tarixiy yaqinlik emas, balki mintaqaning strategik manfaatlari, energetik salohiyati va transport-logistika imkoniyatlarining uyg'unlashuvining natijasidir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik bizning umumiy ildizlarimizga, tarixiy merosimizga va kelajakdagi umumiy maqsadlarimizga tayanadi.

Biz birdamlik orqali kuchli, barqaror va farovon mintaqani barpo etamiz". Ushbu hamkorlik paradigmasi Yevroosiyo qit'asining iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kamarini yaratishni ko'zda tutadi.

Geosiyosiy va diplomatik o'lcham:

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy integratsiya Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida mustahkamlanmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bugun mintaqaviy arxitekturada institutsional kuchga aylandi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, tashkilot a'zolari global YAIMning qariyb 5%ni tashkil etib, ulkan demografik va iqtisodiy salohiyatga ega. Turkiy davlatlarning mudofaa va xavfsizlik sohasidagi muloqoti tashqi bosimlarga qarshi umumiy qalqon vazifasini o'tamoqda. Qozog'iston prezidenti Q.To'qayev ta'kidlaganidek, bu birlik davlatlarning mustaqilligini mustahkamlash uchun tarixiy zaruratdir. Shuningdek, global beqarorlik sharoitida turkiy davlatlarning yagona platformada birlashishi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim kafolatiga aylandi. Shu bilan birga, ushbu tashkilot mintaqaviy siyosatdagi yangi integratsion model bo'lib, u tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Chunki bu tashkilot nafaqat siyosiy birdamlik, balki iqtisodiy texnologik va madaniy integratsiyani chuqurlashtirayotgan yagona mintaqaviy kuchdir. Bugungi kunda tashkilot a'zolari dunyo aholisining 9% foizdan ortig'ini, global YAIMning qariyb 5% foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, 2024-yilda TDT mamlakatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi 40 milliard AQSH dollarga yetdi - bu 2018-yilga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p. Bu o'sish, bir tomondan, transport yo'laklarining faollashuvi (ayniqsa "Transkaspiy xalqaro transport yo'lasi") bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zaro investitsiya siyosatining barqarorlashgani bilan izohlanadi. TDTning muvaffaqiyatli faoliyatini tahlil qilgan professor Hikmet Chetin shunday deydi: "Turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy birdamlik - bu yagona kuch markazini shakillantirishning kalitidir." Ko'pvektorli diplomatiyaga ko'ra, ushbu blok nafaqat o'zaro, balki "Markaziy Osiyo+" formatlari orqali yirik derjavalalar bilan teng huquqli muloqot olib bormoqda. Turkiya va Ozarbayjon o'rtasidagi: "Bir xalq - ikki davlat" shiori nafaqat siyosiy, balki amaliy diplomatik hamkorlikning timsoliga aylandi. Bunda O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston kabi davlatlarning faol ishtiroki bu birdamlikni yanada mustahkamlab, "Turkiy geosiyosiy makon" tushunchasini amalda mustahkamlamoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi kunda global xavfsizlik arxitekturasida

muhim o‘rin tutmoqda. Shu sababli, bu davlatlar o‘rtasida mudofa sohasidagi hamkorlik, chegara xavfsizligi, terrorizmga qarshi kurash borasida hamkorlik aloqalari tobora chuqurlashmoqda. Tahlilchi Kamola Ergashova (xalqaro xavfsizlik bo‘yicha tadqiqotchi, Toshkentdagi Yevropa tadqiqotlar markazi yetakchi eksperti) fikricha: “Turkiy davlatlarning mudofa sohasidagi hamkorligi ularga tashqi bosimlarga nisbatan yaxlit geosiyosiy immunitet beradi.” Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev 2023-yil Anqarada bo‘lib o‘tgan TDT sammitida shunday degan edi: “Turkiy davlatlarning birligi — bu tarixiy zarurat. Biz birlashgan holda siyosiy suverenitetimizni va iqtisodiy barqarorligimizni mustahkamlashimiz kerak”.

Iqtisodiy integratsiya: umumiy manfaatlar va yangi yo‘nalishlar.

Turkiy dunyo integratsiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri - bu iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishdir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon o‘rtasidagi savdo hajmi barqaror o‘smoqda. 2024- yil TDT sammiti yakunlariga ko‘ra, o‘zaro tovar ayriboshlash hajmi 45 milliard AQSH dollardan oshdi, bu esa 2020-yilga nisbatan qariyb ikki barobar ko‘pdir. Rasmiy statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasi 2024-yilda US\$65.9 milliardni tashkil etadi. O‘zbekiston - Turkiya savdo aylanmasi 2024-yilda taxminan US\$2.1-2.9 milliardga yetdi. Shuningdek O‘zbekiston - Ozarbayjon o‘zaro savdosi esa 2024-yilda taxminan US\$253.5 million bo‘ldi. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi savdo aylanmasi 3,2 milliard AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, Ozarbayjon bilan savdo hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Bu raqamlar mintaqaviy loyihalar orqali yanada oshishi kutilmoqda. TDT doirasida 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan “Turkiy dunyo- 2025 strategiyasi” ishlab chiqildi. Unda energetika, transport, raqamli iqtisodiyot va yashil o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Qozog‘iston prezidenti Qosim-Jomart To‘qayevning Istanbul sammitida aytgan “turkiy dunyo XXI asrning eng istiqbolli geoiqtisodiy markazlaridan biriga aylanmoqda” degan fikri mintaqaning kelajagini aniq ifodalaydi. Bugungi O‘zbekiston bu jarayonlarda faol ishtirok etib, TDT doirasida “Yoshlar platformasi”, “yashil enargetika markazi” va “Transport logistikasi alyansi” kabi tashabbuslarni ilgari surmoqda. “O‘rta Karidor” (TITR) lohiyasi eng xavfsiz va qisqa yol sifatida tan olinmoqda. Zangazur yo‘lagining ochilishi esa mintaqaning geoiqtisodiy mustaqilligini yangi bosqichga olib chiqadi. “Transport infratuzilmasi - bu shunchaki iqtisodiy yo‘l emas, balki strategik ishonch ko‘prigidir”. Bundan tashqari, “Transxazar xalqaro transport yo‘lagi” va “Zangazur koridori” loyihalari mintaqaning transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirib, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi savdo aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘lagi (TITR) va Zangazur yo‘lagi orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari tovarlarini Yevropa bozorlariga Turkiya orqali yetkazish imkoniga ega bo‘lmoqda. Turkiya Prezidenti administratsiyasi kommunikatsiya bo‘yicha rahbari Dr. Fahrettin Altun shunday deydi: “Transport infratuzilmasi - bu iqtisodiy yo‘l emas, balki ishonch yo‘lidir. Turkiy dunyo o‘zaro bog‘lanish orqali mustahkam harakat qilish imkoniga ega bo‘ladi. O‘zbekistonlik siyosatshunos Dr. Shokirjon Hakimov ta‘kidlaydi: “Zangazur yo‘lagi nafaqat iqtisodiy manfaat, balki Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy mustaqilligini kuchaytiruvchi omil bo‘ladi.”

Gumanitar, transchegaraviy va ekologik hamkorlik: Barqaror kelajak sari. Bugungi globallashgan dunyoda gumanitar, transchegaraviy va ekologik masalalar davlat chegaralaridan qat'iy nazar yechimini talab qiladi. Turkiy davlatlar nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ekologik yo'nalishlarda ham yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. 2025-yil 30- oktyabrdan 13-noyabrgacha Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan YUNESKO Bosh assambleyasining 43-sessiyasi Markaziy Osiyoning madaniy va ilmiy salohiyatiga dunyo e'tiborini qaratadi. "Turkiy dunyo - 2025 strategiyasi" doirasida yashil energetika loyihalari ustuvorlik kasb etmoqda. Ozarbayjon va Turkiya o'rtasidagi quyosh energiyasi, shamol energetikasi loyihalari mintaqning "energetik mustaqilligi"ga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonning "Yashil Makon" tashabbusi ekologik hamkorlikning yangi modeliga aylandi. Ushbu tashabbus orqali turkiy davlatlar o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslarini boshqarish va barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik kuchaymoqda. O'zbekiston, ayniqsa, ta'lim, fan, madaniyat va sport sohalarida faol tashabbusi bilan turkiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Toshkentda 2024-yilda o'tkazilgan "Turkiy yosh olimlar forumi" bu

Yo'nalishdagi eng muhim tadbirlardan biri bo'ldi. Shuningdek, "Alisher Navoiy nomidagi Turkiy madaniyat markazi" va "Turkiy meros kutubxonasi" kabi loyihalar xalqaro ilmiy almashinuvga xizmat qilmoqda. Turkiy davlatlar o'rtasida tarixiy merosni birgalikda o'rganish, arxeologik ekspeditsiyalar, qo'shma muzeylar tashkil etish tashabbuslari yo'lga qo'yilgan. Masalan, "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab turkiy meros" loyihasi doirasida Toshkent, Boku va Istanbulda ko'rgazmalar o'tkazilmoqda. Bu orqali o'zaro hurmat, tarixiy xotira va umumiy ezgulik tuyg'usi yanada mustahkamlanmoqda. Turkiy dunyo integratsiyasining muhim jihati- u faqat iqtisod emas, balki ekologik barqarorlik va gumanitar aloqalarni ham qamrab oladi. Orolbo'yi mintaqasini ekologik tiklash, Buxoro- Anqara madaniy almashuv dasturi va yoshlar uchun "Turkiy Talabalar Forumi"- bular mintaqaviy birdamlikning insoniy poydevori. Madaniyat, ta'lim va gumanitar hamkorlik - bu turkiy davlatlarni birlashtiruvchi "yumshoq kuch"dir. Aynan shu kuch tufayli mintaqada o'zaro ishonch, madaniy bag'rikenglik va tinchlik qadriyatlarini mustahkamlanmoqda. Turkiy davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yashil energetika loyihalarini amalga oshirmoqdalar. Masalan: Ozarbayjon va Turkiya o'rtasida quyosh energiyasi bo'yicha qo'shma loyiha;

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida shamol energetikasi markazlari; Raqamli monitoring tizimlari orqali resurslarni samarali boshqarish.

Bu loyihalar nafaqat ekologik barqarorlik, balki mintaqaviy hamkorlik va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlari suv resurslarida boy, ammo ularni oqilona boshqarish nafaqat milliy, balki mintaqaviy xavfsizlik masalasi hisoblanadi.

Tahlilchi Orif Mirzayev (ekologiya bo'yicha tadqiqotchi, Toshkent) ta'kidlaganidek:

"Suv resurslarini birgalikda boshqarish - faqat ekologik, balki siyosiy hamkorlikning mustahkam poydevoridir."

O'zbekistonning yetakchilik roli:

O‘zbekiston bugun turkiy dunyoning “geografik va siyosiy yuragi” vazifasini bajarmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning (TDT) sammitlaridagi chiqishlarida “Turkiy dunyo yagona ildiz, yagona tarix va yagona kelajak bilan bog‘langan oiladir” degan fikrlari bu yo‘nalishdagi yondashuvni yaqqol ifodalaydi. O‘zbekiston 2022-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan TDT sammitiga muvaffaqiyatli mezbonlik qildi. Sammitdan so‘ng bir qator muhim institutlar shakllandi:

1. Turkiy investitsiya fondi: Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy mexanizm.

2. Yashil energetika markazi va Transport logistikasi aylanasi: Amaliy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish platformasi.

3. Gumanitar diplomatiya: “Yashil makon” tashabbusi va Samarqanddagi YUNESKO Bosh assambleyasi sessiyasi (2025) O‘zbekistonning “yumshoq kuch” (soft power) salohiyatini namoyon etdi.

Shu davrda mintaqaviy savdo hajmi 2,5 barobar oshgan bo‘lsa, transport va logistika loyihalariga 3 milliard dollardan ortiq investitsiyalar yo‘naltirilgan. Turkiya bilan savdo hajmini 2,3 milliard dollardan 5 milliard dollarga oshirdi, Ozarbayjon bilan esa energetika va infratuzilma sohasida 20 dan ortiq qo‘shma loyiha amalga oshirilmoqda. Bu faktlar mintaqaviy hamkorlikning amaliy natijalarini ko‘rsatdi. O‘zbekiston bugun Turkiy dunyoning “geografik yuragi” sifatida harakat qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev TDTning 2023-yil noyabr oyida bo‘lib sammitida shunday degan edi:

“Turkiy dunyo XXI asrda o‘z tarixiy qudratini yangidan tiklayapti. Buning poydevori iqtisodiy integratsiya, transport, ta‘lim va madaniyatdagi hamkorlikdir. Bu so‘zlar O‘zbekiston tashqi siyosatining mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek mintaqaviy barqarorlik va o‘zaro manfaat asosida taraqqiyot. Nima uchun aynan hozir bu jarayon aynan tezlashdi degan savol tug‘ilishi tabiiy hol albatta. Sababi, global siyosatda yangi kuch markazlari shakllanmoqda. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatda Turkiy davlatlar mintaqasi tranzit , energiya va logistika jihatdan o‘ta muhim “ko‘prik” rolini bajarmoqda. Bu jarayonni Qozog‘iston Prezidenti Qosim- Jomart To‘qayev 2023-yilgi TDT sammitida quyidagicha ifodalagan edi: “Turkiy davlatlar bugun nafaqat tarixiy ildiz, balki zamonaviy manfaatlar bilan birlashmoqda. Bu birdamlik-global barqarorlikka xizmat qiladi.” Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning “Markaziy Osiyo + ” formatlarida faol ishtiroki nafaqat milliy manfaat, balki mintaqaviy diplomatiya muvaffaqiyatidir. Samarqand-yangi diplomatik markaz: Joriy yil 30-oktyabrdan 13- noyabrgacha Samarqand shahrida YUNESKO bosh assambleyasining 43- sessiyasi o‘tkazilishi ham bejiz emas. Bu xalqaro hamjamiyatning Markaziy Osiyoga, xususan O‘zbekistonga e‘tiborining oshganidan dalolat beradi. Aynan Samarqand tanlanishi tarix, madaniyat va diplomatiya uyg‘unligining timsolidir. Chunki bu sessiyada dunyo miqyosidagi barqarorlik, madaniy merosni saqlash va ta‘lim siyosati muhokama qilindi-bu esa O‘zbekistonning tashabbuskorlik rolini mustahkamlaydi. Shuningdek O‘zbekistonning regional lider sifatida pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston TDT doirasida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, “Turkiy investitsiya fondi” tashkil etilishi, “Turkiy

savdo uyi” loyihasi va ta’lim sohasidagi “Turkiy universitetlar alyansi” — bular O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiyaga faol hissa qo‘shayotganining dalilidir.

Prezident Mirziyoyev 2024-yil Naxichevanda o‘tgan sammitda shunday degan edi:

“Turkiy dunyo – bu bizning umumiy ildizimiz, kelajagimiz va kuchimizdir. Bugun biz birgalikda yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqdamiz”.

Xulosa.

Turkiy davlatlar integratsiyasi - bu global beqarorlik sharoitida barqarorlikni ta’minlovchi yangi kuch markazidir. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon o‘rtasidagi uch tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik Yevroosiyo xavfsizligi va taraqqiyoti uchun strategik kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Bu birlik nafaqat umumiy o‘tmish, balki kelajak falsafasiga tayangan yangi turkiy uyg‘onish davridir. Bugungi global tartibda turkiy davlatlar o‘z ovozigacha ega bo‘layotgani tarixiy jarayondir. Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjonning strategik yaqinlashuvi — bu nafaqat iqtisodiy zarurat, siyosiy manfaatlar birlashuvi, balki umumiy tarix, qadriyatlar va barqaror kelajak sari intilishning ifodasi. Shuningdek madaniy uyg‘onishning yangi bosqichidir. Markaziy Osiyo, Turkiya va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlik bugun geosiyosiy zaruratga, ertangi taraqqiyot kafolatiga aylanmoqda. Bu jarayon - tarixiy ildizlar va zamonaviy diplomatiya uyg‘unligining mahsulidir. Demak, bugungi Turkiy dunyo integratsiyasi - bu nafaqat umumiy til va madaniyat, balki umumiy kelajak falsafasidir.

O‘zbekistonning faol tashabbuslari bu yo‘nalishda mintaqaning integratsion jarayonlariga baraka, barqarorlik va global nufuz olib kirayotganini ko‘rsatmoqda. Bugun Turkiy dunyo “tarixiy ildizlar va zamonaviy hamkorlik uyg‘unligi”ni amalda namoyon etmoqda. Eng asosiysi, bu uyg‘unlik tinchlik, taraqqiyot va o‘zaro hurmat tamoyillariga tayangan barqaror kelajak sari yo‘lni yoritmoqda.

Bu hamkorlik “Birlik – kuch, hamkorlik – taraqqiyot, o‘zaro ishonch – barqaror kelajak” tamoyili asosida shakllanmoqda. Mintaqaning tinchlik, farovonlik va barqaror rivojlanish sari olg‘a intilishi – butun turkiy dunyo uchun yangi sahifa ochmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Turkiy davlatlar tashkilotining o‘n birinchi sammitidagi nutqi (Bishkek, 2024). <https://president.uz/uz/lists/view/7671>.
2. Organization of Turkic States. "Turkic World Vision – 2040" and "Strategy for 2022-2026". <https://www.turkicstates.org/en/temel-dokumanlar>.
3. Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha hisobot (2024). <https://stat.uz/uz/matbuot-xizmati/uzbekiston-respublikasining-tashqi-savdo-aylanmasi>.
4. Tokayev K.J. Speech at the 10th Summit of the Organization of Turkic States (Astana, 2023). <https://www.akorda.kz/en/speeches>.

5. Ministry of Transport of Uzbekistan. Trans-Caspian International Transport Route (TITR) Report. <https://mintrans.uz/uz/activity/logistics>.
6. Eldaniz G. "The Zangezur Corridor: A New Breath for the Turkic World." Center for Analysis of Economic Reforms and Communication of Azerbaijan. <https://ereforms.gov.az/en>.
7. UNESCO. 43rd session of the General Conference in Samarkand (2025). <https://www.unesco.org/en/general-conference>.
8. Ministry of Ecology of Uzbekistan. "Yashil Makon" National Program official data. <https://eco.gov.uz/uz/site/program-view?id=1>.